

Tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi

// 16.12.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoq-korxonalarida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-tizimini->



"O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'linmalari rahbar va xodimlari ishtirokida videokonferensiya aloqa shaklida davra suhbatini tashkil etildi.

Tadbirga xodimlar bilan ishlash hamda davlat xaridlarini tashkil etishga mas'ul boshqarmalar xodimlari ham jalb etildi.

Davra suhbatida asosiy e'tibor joriy yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosiga qaratildi.



Ta'kidlanganidek, bu borada har bir korxonada chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilgan.

Tadbir davomida bajarilgan ishlar tahlil qilinib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, yil davomida tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot va tasdiqlovchi hujjatlarni sifatli tayyorlash, ularni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-anticor.uz" elektron platformasiga to'liq va belgilangan muddatlarda joylashtirish masalalari ham muhokamalar markazida bo'ldi.



Vazifalarning izchil va samarali ijrosi "O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga, shuningdek, sohadagi faoliyat samaradorligini reyting baholash tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishishga xizmat qilishi ta'kidlandi.